TALABA YOSHLAR ORASIDAGI ARTERIAL BOSIMNING O‘ZIGA XOSLIGINI

Babjanova V.A.
Ilmiy rahbar – Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti
“Fiziologiya, biofizika va tibbiyotda axborot
texnologiyalari” kafedrasi assistenti,
Maxsetbaeva Sh.A.
Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti
davolash fakulteti 2-kurs talabasi

Kirish. Yurak qon tomor tizimi organizmda eng ahamiyatli va asosiy tizim hisoblanadi. Qon tomir tizimida ayniqsa qon bosimi haqida gap ketganda bu mavzu deyarli barchada qiziqish uyg‘otadi. Qon bosimining yoshlarda (18-20 yoshlar) anig‘irog‘i talabalardagi o‘zgarishini ko‘rib chiqdik. Arterial bosim - bu yurak qisqarishi paytida arterial tizimda hosil boladigan bosim va murakkab nerv-gumoral regulyatsiyada, yurak u‘rish tezligi, ritmi shuningdek tomirlar tonusiga bog‘liq bosimga aytiladi. Sistolik va diastolik qon bosimi farqlanadi. Sistolik-bu qorincha sistolasidan keyin puls to‘lqinining maksimal ko‘tarilishi paytida arteriyalarda paydo bo‘ladigan bosim. Diastolik-bu qorincha diastolasidagi arterial tomirlarda saqlanadigan bosim. Puls bosimi sistolik va diastolik qon bosimi o‘rtasidagi farqga aytiladi.

Tadqiqot maqsadi. Qon bosimi ko‘rsatkichlarini organish uchun, Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti talaba yoshlari (1-2-kurs davolash, pediatriya) orasida olib borildi. Aniqlashdan asosiy maqsad hozirgi paytda arterial giertoniya va gipotonik holatlarning yosharib borayotgani uchun, talaba yoshlar orasida tadqiqot olib borish va natijalarini umumiylahtirish.

Materiallar va usullar. Tadqiqot olib borish uchun biz asosan tonometrdan foydalanamiz. Arterial bosimni olchash chogida sorovnama ham toldiriladi. Sorovnomada ismi sharifi, yoshi, jinsi, boyi va tana ogirligi yoziladi. O‘lchov shartlari:

- ✓ Tadqiqot olib boradigan xona etatlicha yorug‘ va komfort haroratda bo‘lishi kerak.
- ✓ Talabani 5-10 daqiqa ichida xona sharoitlariga moslashtirish.
- ✓ Qon bosimini o‘lchash ovqatdan bir soat o‘tgach, tonik ichimliklar, qon bosimiga ta'sir qiluvchi dorilarni qabul qilgan bolsa kamida ikki soatdan keyin amalga oshiriladi.
- ✓ O‘tirgan holatida oyoqlarini chalkashtirmsatan, qo‘l tirsagini stolga qulay tarzda joylashtirish.
- ✓ Manjetani bilak chuqurchsidan 2,5 sm yuqoridan aylantiramiz va oralig‘iga bir barmoq joylashadigan qilib qoyamiz.
- ✓ Monometrni manjeta yuqorisiga joylaymiz, fonendoskopni arteriya sohasiga qattiq bosmagan holda joylaymiz.
- ✓ Pulsatsiya yo‘qolguncha manjetaga havo yuboriladi.
- ✓ Puls to‘lqinining birinchi urishi paydo bo‘lgan raqamini belgilaymiz
- ✓ Havo chiqarishni davom etamiz, jarangli tovush eshitilganda monometrdan ko‘rsatkish eslab qolinadi
- ✓ Birinchi va ikkinchi hosil bolgan tovushlar sistolik va diastolik bosimni bildiradi.
- ✓ Qon bosimini bir marta o‘lchash tartibi 1 daqiqa davom etadi.

Tadqiqot natijalari. Talabalar orasida olib borilgan tekshiruv va so‘rovnamaga asosan kuyidagicha natiyjalar olindi. Umumiy tekshiluvchilarda (265 nafar talabalardan 61% qiz bolalar, 39% o‘g‘il bolalar) o‘g‘il bolalarda o‘rtacha 125/85, qiz bolalarda esa 110/70. Bu ko‘rsatkich o‘rta hisobta olindi, agar ularning yashash muhitini, jismoniy

harakatlanishini, ovqatlanishini va tana vaznini hisobga olsak o‘ziga xoslikka ega. Tog‘li hududlarga yaqin joylashgan viloyatda yashovchilar, muntazam jismoniy mashq bilan shugullanadigan talabalarda nisbatan yuqori ko‘rsatkichta boladi. Nofaol turmush tarzidagi va tog‘ri ovqatlanmaslik holatidagi talabalarda esa ko‘rsatkich pastroq boladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra 18-20 yoshli talabalar orasidagi arteial bosim ko‘rsatkichlarining nisbatan yuqori bo‘lishi, noto‘gri ovqatlanish, passiv turmush tarzida bo‘lishi va ayniqsa ularning psixo emotsional holatlari, jizzakilik asosiy omillar hisoblanadi.